



ANDIJONNING IQTISODIY-IJTIMOYIY RIVOJLANISHI, YANADA OBOD BO‘LISHI UCHUN HAMJIHATLIKDA ISH OLIB BORISHIMIZ KERAK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatida bo‘ldi.



16-aprel kuni Buloqboshi tumanida davlatimiz rahbari raisligida Andijon viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Andijonda yangi O‘zbekiston shukhi har bir tuman, har bir mahallaga kirib borayotgani qayd etildi. O‘tgan yili viloyatda 4 mingdan ziyod yangi tadbirkor ish boshlagan. 450 ming aholi ishli bo‘lgan.

Viloyatda 1,5 million kvadrat metr turar joy va 850 ming kvadrat metr noturar joylar qad ko‘tardi. Buning hisobiga o‘tgan yili savdo va xizmatlar 13 foizga, sanoat 7,5 foizga oshdi.

Lekin hayot bir joyda to‘xtab turmaydi. Andijonda iqtisodiy salohiyat, yangi loyihalar va tashabbuslar ko‘p.

Yig‘ilishda kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya va eksportni ko‘paytirish, qurilish, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish borasidagi vazifalar muhokama qilindi.

Avvalo, 2025-yilda Andijon viloyatida kamida 6 foiz iqtisodiy o‘rtni ta‘minlab, yalpi hududiy mahsulotni 105 trillion so‘mdan oshirish, 305 ming aholini band qilib, 150 ming odamni kambag‘allikdan chiqarish imkoniyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Masalan, Andijonda dastgohsozlik sanoati

yxshi shakllangan. Lekin ikki yilda viloyatga chetdan 1 milliard dollarlik asbob-uskunalar import qilingan. Agar ularni o‘zimizda tayyorlash o‘zlashtirilsa, iqtisodiyotga qo‘shimcha tushum, odamlarga ish o‘rni bo‘ladi. Bunday tashabbuskorlarni qo‘llab, sertifikat va zarur buyumlar olishiga ko‘maklashish kerak.

Shuningdek, mashinasozlik-konstruktorlik ishlab chiqarish markazlari tashkil etiladi. Sanoat tarmoqlarida talab yuqori bo‘lgan import uskunalarining texnik ko‘rsatkichlari o‘rganilib, mahalliy korxonalarga muqobillari taklif qilinadi. Bunday uskunalar mahalliy lashtirish istagidagi tadbirkorlarga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beriladi.

Viloyatdagi 13 ming gektar adirga suv chiqarib, bemaol ekin ekish mumkin. Lekin u yerlarga suv chiqarishda nasos ishlatish uchun elektr narxi dehqonlarga og‘irlik qiladi. Shu bois, quyosh paneli o‘rnatish uchun moliyaviy instrumentlar qo‘llanadi. Qo‘rg‘ontepada 300 gektar adirlikda sanoat usulida intensiv bog‘ va uzumzor barpo etilib, tadbirkorlarga tayyor holda taklif qilinadi.

Boshqa hududlardagi samarasiz issiqxonalar Andijonga ko‘chirilib, aholiga lizingga beriladi. Mahallalarga arzon urug‘ va mineral o‘g‘it yetkaziladi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Baliqchi va Oltinko‘lda 5 gektardan issiqxona tashkil etib, 100 ta ehtiyojmand oilani daromadli qilgan. Endi bu Ulug‘nor, Paxtaobod, Xo‘jaobod, Marhamat va Andijon tumanlarida ham yo‘lga qo‘yiladi. Bunday zamonaviy issiqxonalarni namunaviy tashkil qilgan mahalla raislariga 100 foiz ustama beriladi.

Viloyatdagi sun‘iy suv havzalarining atigi 23 foizida intensiv usulda baliq yetishtirilyapti, xolos. Osiyo taraqqiyot bankidan 15 million dollar jalb etib, 320 gektarda intensiv usulda baliq yetishtirish, 500 ta xonadon bilan kooperatsiya qilish loyihasi ishlab chiqilgan. Mutasaddilarga bu loyihani nazoratga olish, umuman, respublikada baliqchilikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Andijonda turizm salohiyati ham yuqori. Xonoboddagi Kampirovot, Buloqboshidagi Shimmonbuloq, Xo‘jaoboddagi Tosh ota mahallalarida turizm maskanlari tashkil qilib, sayyohlarni ko‘paytirish imkoniyati bor. Bu yil sohada 125 million dollarlik 25 ta loyihani yakunlash, 3,5 million xorijiy va mahalliy sayyoh jalb qilib, turizm eksportini 200 million dollardan oshirish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda investitsiya va eksport masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bu

yil xorijiy investitsiyalar hajmi 3,1 milliard dollarga yetkazilishi, 1 milliard dollarlik 23 ta yirik, 321 ta kichik va o‘rta loyiha ishga tushirilishi qayd etildi. Eksportni 1,5 milliard dollarga, mahalliy lashtirish hajmini 10 trillion so‘mga olib chiqish imkoniyati bor.

Har yili Andijondan Qirg‘izistonga 200 million dollarlik eksport bo‘lyapti. Chegaradan 5 ming dollarlikkacha bo‘lgan mahsulotni qo‘lda olib o‘tishga ruxsat berilgani natijasida yana millionlab dollarlik tovar sotilyapti. O‘zaro savdoni kengaytirish uchun Qo‘rg‘ontepa va Xo‘jaobodda erkin savdo va sanoat zonalarini tashkil qilish taklifi bildirildi.

Viloyatdagi 360 ta bo‘sh va samarasiz ko‘chmas mulkni qulay shartlarda auksionga chiqarib, tadbirkorlik loyihalariga zamin yaratish muhimligi ta‘kidlandi.

Suv oqimi yuqori bo‘lgan ariq va kanallarda 75 megavatt quvvatga ega kichik va mikro GESlar qurish imkoniyati bor. Bunda qatnashadigan tadbirkorlarga 3 yil imtiyozli davr bilan 7 yilga 12 foiz stavkada kredit beriladi.

Qurilish va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ham vazifalar ko‘p. Xususan, bu yil 9 ming 700 xonadonli 245 ta ko‘p qavatli uy quriladi. Bu sohada 10 ming nafar aholining

bandligi ta‘minlanadi. Ming kilometrdan ziyod yo‘l va ko‘priklar ta‘mirlanadi.

Xonobod — Andijon magistral suv quvurining quvvati yetishmasligi sababli 6 ta tumandagi 510 ming aholiga suv yetkazib berishda muammolar bor. Shu bois, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida ushbu quvurning 2-tarmog‘ini qurish zarurligi ta‘kidlandi.

Qo‘shni davlatlar bilan bog‘lovchi yo‘llarning o‘tkazuvchanligini oshirish, Andijon shahri bilan tumanlar o‘rtasida jamoat transportini rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Ijtimoiy yo‘nalishlar aholi turmushida bevosita aks etadi. Andijonda bu yil yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti ulushi 40 foizga yetkaziladi. 15 ming nafar texnikum bitiruvchisining bandligi ta‘minlanadi. 6 ming talaba dual ta‘lim bilan qamrab olinadi. Oliy ta‘limning muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot, agrar yo‘nalishidagi 4 ta ta‘lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkaziladi.

Shu maqsadda, jumladan, tibbiyot ta‘limi va turizmini rivojlantirish, mahallalarda tunu kun xizmat ko‘rsatadigan xususiy tibbiyot punktlarini ko‘paytirish choralari belgilandi.

Ma‘lumki, salohiyati va ko‘nikmasini

oshirgan maktab direktorlarini rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Endi bu tizim texnikumlarda ham joriy qilinadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har yili Bobur shahrida rassomlar festivali o‘tkaziladi. G‘oliblarga Prezident sovg‘asi sifatida avtomobil berilishi e‘lon qilindi.

— Bugun Andijon rivojini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha eng muhim vazifalarni belgilab oldik, barcha masalalarga to‘xtalib, viloyat uchun zarur mablag‘larni ham hal etdik, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Agar barchamiz bir bo‘lib, hamjihat bo‘lib ish olib borsak, yutuqlarimiz yanada ko‘payadi, biz zabt etolmaydigan marraning o‘zi bo‘lmaydi, Andijon yanada obod bo‘ladi.

Yig‘ilishda Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar va boshqa mutasaddilar o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha axborot berdi. Viloyat hokimi, 16 ta shahar va tuman hokimi aholi va tadbirkorlarni har kuni eshitib, hozirgi sur‘atni saqlab qolishi, dunyodagi iqtisodiy tebranishlar sharoitida favqulodda mas‘uliyat olishi lozimligi ta‘kidlandi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.



Inson qadri uchun

VILOYATNING HAR BIR MAHALLASI, XONADONIDA YANGI O‘ZBEKISTON SHUKUHI



Andijon viloyatida o‘tgan yili 4000 dan ziyod yangi tadbirkor ish boshladi, 51 ta korxona kichikdan o‘rta toifaga o‘tdi, 13 tasi yiriklashdi. Bir yilda 450 ming kishi ishli bo‘ldi.

Viloyatda 1,5 million kvadrat metr turar joy va 850 ming kvadrat metr noturar obyektlar qad ko‘tardi. Buning hisobiga o‘tgan yili savdo va xizmatlar 13 foiz, sanoat 7,5 foiz oshdi.

Prezidentimiz Andijon viloyatiga tashrifi doirasida Buloqboshi tumanida viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu natijalarni qayd etar ekan, bu zaminda yangi O‘zbekiston shukhi har bir mahalla, har bir xonadonga kirib

ulgurganini, bu — islohotlarimizning eng katta natijasi ekanini e‘tirof etdi.

Ha, bugun Andijon sanoq qonuniyati yoki yurtimiz sharqida joylashgani uchungina emas, balki sanoat, qurilish, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi kabi ustuvor tarmoqlarda

katta natijalarga erishayotgani ham tom ma‘noda doim oldingi saflarda.

Buni bir guruh andijonliklarning davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifiga doir fikr-mulohazalaridan ham bilish mumkin.

Davomi 3-betda



Munosabat



SAMARQAND IQLIM FORUMI
4-5 APREL 2025

SAMARQAND IQLIM FORUMI — DUNYO EKOLOGIK SIYOSATIDAGI TARIXIY QADAM

Joriy yil aprel oyi boshlarida mamlakatimiz dunyo miqyosidagi qator muhim siyosiy tadbirlarga mezbonlik qildi. Shulardan biri — Samarqand iqlim forumi xalqaro ahamiyati va nufuzi bilan jahon yetakchilari, siyosatchilari, ekspertlarini bir maqsad atrofida birlashtirib, millionlab ekofaollar nigohini Samarqandga qaratdi, sayyoramiz kelajagiga bo‘lgan umid chiroqlarini nurlantirdi. Mazkur forum bugun ona zaminimiz, jumladan, Markaziy Osiyo duch kelayotgan dolzarb iqlim muammolari yechimiga qaratilgan aniq tashabbuslar bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi.

“Yashil” dunyoning umid nigohi

Ushbu yirik anjumanda ayon bo‘ldiki, O‘zbekiston yakkala o‘zi emas, balki mintaqaviy va xalqaro hamkorlik orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkinligini chuqur anglaydi. Zero, hech bir tabiiy ofat chegara bilmaydi, hudud va mamlakat tanlamaydi. Sayyoramiz duch kelgan ekologik muammolar yechimi uchun birinchi qadam, yagona najot birlashish va maqsadlar musharakligidir. Forum maqsadining asosiy o‘zagi ham boshqa hamkorlarni shunga da‘vat etishga qaratildi.

Davomi 2-betda

ANDIJONNING IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHI, YANADA OBOD BO‘LISHI UCHUN HAMJIHATLIKDA ISH OLIB BORISHIMIZ KERAK

Boshlanishi 1-betda

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Bulqoboshi tumanidagi “Fayz-M” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda xomashyoni qayta ishlab, qo‘shilgan qiymat yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur korxona ham mato to‘qish, bo‘yash va tayyor trikotaj ishlab chiqarish yo‘nalishidagi yirik loyihalardan biri.

Bu yerda yiliga 4 million 200 dona, 50 turdagi mahsulotlar tayyorlanadi. Mingga yaqin fuqaro ish bilan ta‘minlangan. Xodimlar malakasini oshirish ham e‘tiborda. Buning uchun dizaynerlik markazi tashkil etilgan.

Turkiya, Germaniya va Xitoydan keltirilgan ilg‘or uskunalar ish unumdorligi va mahsulotlar sifatini ta‘minlamoqda. Tayyor kiyim-kechaklarning katta qismi eksportga yo‘naltiriladi. Yillik eksport salohiyati 6 million dollarga yetgan.

Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayonini va tayyor mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi. Sifat ko‘rsatkichlari ustida ishlab, qo‘shilgan qiymatni oshirish va eksport geografiyasini kengaytirishga to‘liq tavsiyalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi “Imkoniyatlar olami” hududiy ijtimoiy xizmatlar markazida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi, aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi asosida insonni qadrlash ko‘lami kengaydi, bu

sohadagi xizmatlar ehtiyojmandlarga yaqinlashtirilmoqda. Ayni yo‘nalishdagi ishlarning davomi sifatida shu yil 3-fevralda “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Uning ijrosi doirasida ilk bor Andijonda “Imkoniyatlar olami” hududiy ijtimoiy xizmatlar markazi ishga tushdi.

Qariyb 5 gektar maydonga ega muassasada ma‘muriyat, faollar zali, inklyuziv ta‘lim va kasbga o‘rgatish binolari, bolalar maydonchasi, sport majmuasi va suzish havzasi mavjud.

Bu yerda nogironligi bor bolalar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga qatnov asosida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Jumladan, ijtimoiy va tibbiy reabilitatsiya xizmati, kasbga yo‘naltirish, xorijiy tillarni o‘qitish xizmatlari hamda kambag‘al oilalar bolalari uchun qo‘shimcha ta‘lim xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

Markazda 60 nafardan ziyod xodim faoliyat yuritadi. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarni aniqlash hamda bu yerga yo‘naltirish “Inson” markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Prezident yurtimizda ilk bor tashkil etilgan erta aralashuv xizmati bilan tanishdi. Bu bo‘lim chaqaloqlikdan uch yoshgacha bo‘lgan bolajonlarni parvarishlashga ixtisoslashgan. Shu vaqtgacha bunday yoshdagi bolalar faqatgina ota-onasi qaramog‘ida bo‘lgan.

Maxsus bog‘chalarga esa faqatgina 3 yoshdan keyin qabul qilingan. Endilikda

homiladorlik vaqtida nogironlik xavfi aniqlansa, onalarga shu binoda xizmat ko‘rsatiladi. Bu ularning farzandlariga bo‘lgan e‘tiborini mustahkamlashda ko‘maklashadi. Shuningdek, ular uchun psixologik maslahatlar beriladi.

Prezidentimiz markazdagi qo‘shimcha ta‘lim xizmatiga mo‘ljallangan binodagi sharoitlar bilan tanishdi. U yerda nogironligi bor bolalarning maktabdan tashqari dars qilishlari, ilm olishlari, internetdan foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari, kambag‘allik reyestrtdagi oilalar farzandlari ham kelib, ingliz, rus, koreys va boshqa tillarni o‘rganishi mumkin.

Ta‘kidlash o‘rinliki, yilning o‘tgan davrida Andijon viloyatida 10 mingga yaqin kambag‘al oilalarning farzandi bog‘chalarga joylashtirildi, qariyb 29 ming nafariga tibbiy ko‘mak ko‘rsatildi, 20 ming nafari ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi. Bu esa ularning “oyoqqa turib”, ish bilan band bo‘lishiga yordam beradi.

Markazda kunduzgi parvarish xizmati ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda nogironligi bo‘lgan insonlar jismoniy va aqliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullaniriladi. Ularga ijtimoiy xodimlar qarab turishi natijasida oilasidagilarning “qo‘li bo‘shab”, ishlashi mumkin bo‘ladi.

Mazkur bo‘limda parvarishlanayotgan fuqarolar bunday g‘amxo‘rlilik tufayli hayotga qaytgani aytib, davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

— Bu e‘tibor zamirida sizning

sog‘lig‘ingiz, yaqinlaringizning dard-u tashvishlari bor. Ko‘nglingiz ochilib, hayotga umid uyg‘onganini ko‘rib, xursand bo‘ldim. Bunday g‘amxo‘rlikni yanada kengaytirib boramiz. Sizlardan faqat sabr-toqat, ishonch va harakat zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ijtimoiy xizmatlar markazida sport majmuasi ham bor. Unda nogironligi bor bolalar uchun mo‘ljallangan badantarbiya xonasi, suv havzasi tashkil etilgan. E‘tiborli jihati, mashg‘ulot qurilmalari AQSH va boshqa xorijiy davlatlardan keltirilgan bo‘lib, adaptiv sportga mo‘ljallangan. Suv havzasi ham bolalarning yoshiga monand alohida qulayliklarga ega.

Davlatimiz rahbari imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lomlashtirish, katta yoshdagi insonlarni o‘ziga mos hunar va mashg‘ulotlarga jalb etish muhimligini ta‘kidladi.

Prezidentimiz Andijon viloyatidagi ijtimoiy xizmatlar markaziga tashrifi chog‘ida sport sohasi va olimpiya harakatiga oid taqdimot bilan ham tanishdi.

Bugungi kunda yurtimizda 10 milliondan ziyod aholi ommaviy sport bilan shug‘ullanmoqda. Tumanlarda, ta‘lim va mehnat jamoalarida turli musobaqalar o‘tkazilmoqda.

Endi bo‘larsakatimiz 15 millionga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan. Buning uchun “Mahalla ligasi”, “Maktab ligasi”, “Talabalar ligasi”, “Vazir kubogi” va “Kasaba uyushmalari kubogi” kabi musobaqalar tashkil etiladi.



Munosabat

“YASHIL IQTISODIYOT” — BARQAROR KELAJAK

Mamlakatimiz bugun milliy va mintaqaviy ekologik muammolarga yechim topishga alohida e‘tibor qaratyapti. Ayniqsa, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida barqaror ekologik siyosat yuritilmoqda.

Iqlim muammolariga qarshi samarali kurashish, salbiy oqibatlarini yumshatish uchun erta yo‘lini emas, aynan bugun amaliy harakatlarga o‘tish kerakligini sayyoramizning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda kuzatilayotgan

Qolaversa, mamlakatimizda 2025-yilga Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nom berilishi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangani va bu hayotda o‘z aksini topayotgani ham biz to‘g‘ri yo‘ldan borayotganimizni ko‘rsatib turibdi.

Jahonda bugun kutilmagan iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlaridan aziyat chekmagan biror davlat yo‘q, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ekologik omillarning har biri chegarasiz xususiyatga ega bo‘lib, jahon ommasini birgalikda ishlashga undamoqda. Biz bu siyosatni anchadan beri keng targ‘ib qilib kelyapmiz.

hamkorlikda loyihalar ishlab chiqildi. Lekin bir narsani tan olish kerak: 2018-yilga kelibgina Orolbo‘yida amaliy ishlar boshlandi. Davlatimiz rahbarining shaxson o‘zi o‘sha yili Orolbo‘yiga tashrif buyurib, u yerdagi shaxsoni ahvoli ko‘rdi, ich-ichidan his qildi. Ana shundan keyingina Orolbo‘yiga munosabat butunlay o‘zgardi.

Yurtimizda Orolbo‘yidagi ekologik holatini barqarorlashtirish, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish hamda aholi turmush tarzini yaxshilash ustuvor masalaga aylandi. Orolning qurigan tubiga qandim, qoraburqo, cherkez hamda saksovl ekish natijasida bugun u yerda yangi hayot boshlanmoqda, tabiiy muvozanat asta-sekin tiklanmoqda.

Ushbu o‘rmon-meliorativ tadbirlari Favqulodda vaziyatda, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirlilari, O‘rmon xo‘jaligi agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2018-2024-yillar davomida 1 million 865 ming gektar maydonda cho‘l o‘simliklari urug‘i va ko‘chatidan “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonlari barpo etildi. “Yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonlarining 1 million 783 ming gektari cho‘l o‘simliklari urug‘idan, 82 ming 397 gektari ko‘chatidan barpo etilgan. Ya‘ni o‘tgan davrda ushbu hududlarga cho‘l o‘simliklarining 82 million tup ko‘chati ekilgan.

Shuningdek, mazkur tadbirlar uchun 7,4 ming tonnadan ortiq saksovl va boshqa cho‘l o‘simliklari urug‘lari jamg‘arildi. Shundan salkam 2 ming tonna urug‘ Mo‘ynoq tumani aholisi tomonidan tayyorlangani bu jafokash elning Orolqumda hayotni tiklashdan qanchalik umid qilayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

O‘rmonzorlashtirish ishlari davom ettirish maqsadida yiliga 100 gektardan kam bo‘lmagan hajmda saksovl niholxonalari tashkil etildi. Har yili o‘rtacha 1000 tagacha texnika va mexanizm, samolyot va motodeltaplan jalb etildi hamda ekish mavsumlarining dastlabki yillarida 2000 nafargacha aholi, ishchi-xodim va mexanizatorlar qatnashdi.

2025-yilda ushbu tadbirlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Natijada bugungi kungacha Orolqum o‘rmonida jami 71,9 ming gektar, shundan sho‘rga chidamli o‘simliklar urug‘idan 71 ming gektar va cho‘l o‘simliklari ko‘chatidan 901 gektar “yashil qoplamalar” barpo etildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, dengizning qurishi natijasida yuzaga kelgan muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida Orolning qurigan tubida qo‘shimcha 600 ming gektar yashil maydon barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish belgilangan. Bugungi kunga qadar Orolbo‘yining qurg‘ochilikka chidamli o‘simliklar ekilgan umumiy maydoni 2 million gektardan ortiqni tashkil etmoqda.

“**Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, 2 yillik saksovl qum ko‘chishini 20 foiz, 5 yilligi 80 foiz, 7 yilligi esa to‘liq to‘xtatadi. 10 yillik 1 tup saksovlarning o‘zi 100 tonnagacha qum ko‘chishining oldini oladi. Yaxshi rivojlangan 1 tup saksovl o‘z ildizi atrofida 10 tonnagacha qum va tuzni tutib turadi. Saksovullar tuproqdagi chang va tuzlarni shamol uchirishiga barham beradi.****”**

Shularni inobatga olgan holda, 4-6-aprel kunlari Samarqand va Nukus shaharlarida bo‘lib o‘tgan Iqlim forumi va Orol madaniyat sammiti mintaqada yashayotgan yuz minglab insonlar uchun yorqin umid mash‘alasi bo‘ldi deyish mumkin.

Umuman olganda, Samarqand iqlim forumi O‘zbekistonning qadim iqlim siyosati va uning xalqaro maydondagi tashabbuslari mamlakatimizning barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalasiga nafaqat milliy yoki mintaqaviy, balki dunyoviy darajada sodiqilgini ko‘rsatadi.



Абдушукрр ХАМЗАЕВ,
Олий Мажлис Қонунчилик
палатаси фракцияси раҳбари

SAMARQAND IQLIM FORUMI —

DUNYO EKOLOGIK SIYOSATIDAGI TARIXIY QADAM

ko‘rinishida namoyon bo‘layotgan murakkab ekologik vaziyatga to‘xtalib, Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o‘zgarishi oqibatlaridan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biri ekanini qayd etgandi.

Ezgu va xayrli tashabbus BMT Bosh kotibi Antoniu Guterriush, davlat va hukumatlar yetakchilari, xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va barchamiz guvoh bo‘lgan mana shunday katta bir voqea sifatida yangi O‘zbekiston tarixiga muhrlandi.

Samarqandda ilk bor xalqaro iqlim forumi o‘tkazilishi O‘zbekistonning ekologik muammolarini hal qilish borasidagi pozitsiyasi qat‘iy ekanini ko‘rsatib berdi. Anjumanda Markaziy Osiyo oldida turgan dolzarb tabiiy ofatlar muammolari muhokama qilindi va ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiy taraqqiyotga erishish hamda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda mintaqaviy hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi. Mintaqa mamlakatlari tomonidan Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyasi bir ovozdan ma‘qullandi.

ERISHILGAN NATIJALAR AHAMIYATI

Forumda Yashil rivojlanish konsepsiyasi taqdimoti o‘tkazildi. Ushbu konsepsiyani Braziliyada bo‘lib o‘tadigan COP30 doirasida tasdiqlash uchun tegishli choralar ko‘rishga kelishildi.

O‘zbekiston 2023-yilda COP28 da rasman ishga tushirilgan sanoat dekarbonizatsiyasi va global darajada jamoaviy harakatlarni kuchaytirish bo‘yicha tajriba almashish uchun platforma bo‘lib xizmat qiluvchi, yuqori iqlim ambitsiyalariga ega 43 mamlakatning ixtiyoriy koalitsiyasi hisoblangan “Climate club”ga a‘zo bo‘ldi.

“Climate club” faoliyati uchta asosiy yo‘nalish — tashlamalarni kamaytirish bo‘yicha shaffof siyosat yuritish, sanoatni o‘zgartirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni qamrab oladi. Tashkilotning asosiy maqsadi Parij kelishuvini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash va global so‘f nol chiqindi”ga erishish uchun iqlim bo‘yicha harakatlarni tezlashtirishdan iborat.

Bundan tashqari, BMT Bolalar jamg‘armasi — UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan strategik hamkorlik bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumini ham imzolandi. Unga ko‘ra, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va salbiy oqibatlar ta‘sirini yumshatish, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish hamda bolalar uchun muhim xizmatlarning inklyuziv, barqaror va ekologik xavflarga tayyor bo‘lishini ta‘minlash yo‘li bilan yosh avlodning chidamligini mustahkamlash yo‘nalishlarida o‘zaro manfaatli hamkorlik rivojlantiriladi. Shuningdek, dolzarb ekologik masalalarda bolalarning ishtiroki kengaytiriladi va ularning salomatligini ta‘minlash ustuvor vazifaga aylanadi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI
SKANER QILING!



“

O‘zbekiston 2023-yilda COP28 da rasman ishga tushirilgan sanoat dekarbonizatsiyasi va global darajada jamoaviy harakatlarni kuchaytirish bo‘yicha tajriba almashish uchun platforma bo‘lib xizmat qiluvchi, yuqori iqlim ambitsiyalariga ega 43 mamlakatning ixtiyoriy koalitsiyasi hisoblangan “Climate club”ga a‘zo bo‘ldi.

VILOYATNING HAR BIR MAHALLASI, XONADONIDA YANGI O‘ZBEKISTON SHUKUHI

Boshlanishi 1-betda

Bugun yurtimizning qay bir go‘shasiga bormang, katta-katta o‘zgarishlarga guvoh bo‘lasiz va albatta, bu yangilanishlardan, aholi kayfiyatidan cheksiz quvonasiz. Buning amaliy ifodasini go‘zal va betakror Andijon zaminida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Sababi so‘nggi yillarda viloyatda aholining turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarga yaxshi hayot, qulay sharoit yaratish bo‘yicha ulkan ishlar qilindi. Ko‘plab yangi turar joylar, ijtimoiy soha obyektlari barpo etildi.

O‘ZGARISHLAR AHOLI TURMUSHIDA AKS ETMOQDA



Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

O‘tgan qisqa muddatda bir necha yil davomida xalqimizni o‘ylantirib kelayotgan ko‘plab masalalar ijobiy hal etildi. Nafaqat viloyat markazi, balki eng o‘lis qishloqlar ham mutlaqo zamonaviy qiyofa kasb etdi. Yo‘l, ichimlik suv, elektr energiyasi bilan bog‘liq masalalar yechilgani, yangi ta‘lim va tibbiyot muassasalari qurilgani shundan darak beradi.

Ilgari viloyatimizda bunday sharoit bo‘lmagan, aholi uchun qulayliklar yaratishga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Hozir bu yerda yangi O‘zbekiston nafari har bir mahalla, har bir xonadonga kirib boryapti. Yangilanishlarni ko‘rib, mana, ko‘p yillar davomida qilinmagan ishlarni qisqa muddatda qilsa bo‘larkan-ku, deysiz beixtiyor.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili fevralda viloyatga tashrif chog‘ida ko‘plab istiqbolli loyihalar bilan tanishib, viloyatdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari ko‘lamini kengaytirish, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish bo‘yicha mas‘ullar oldiga aniq vazifalar qo‘ygandi.

Bu tashrif haqiqatan xalqning uzoq kutilgan orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishga zamin yaratdi. Hozir viloyatdagi qurilish va bunyodkorlik ishlarini ko‘rib ko‘zingiz quvnaydi. Muhimi, aholining turmushi yaxshilanmoqda, odamlar har bir kundan, islohotlardan rozi.

Uzoqqa bormaylik, bundan yetti yil avval viloyatda sanoat, ishlab chiqarish korxonalarini barmoq bilan sanash mumkin edi. Bugun viloyatda 11 mingdan ziyod sanoat korxonasi bor. Ularning mamlakat sanoatidagi ulushi 10 foizdan yuqori. Xususan, hududda 47 ta sanoat

zonasi tashkil etilgan. Ularda 2,3 trillion so‘mlik mingta loyiha amalga oshirilgan, 18 ming kishi ish bilan ta‘minlangan.

Hozir qiymati 1 milliard dollarlik 288 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilish jarayonida. Jumladan, bu yil 119 ta loyiha ishga tushirilib, 4000 dan ortiq ish o‘rni ochiladi. Sanoat mahsulotlari eksporti 47 million dollarga yetkazildi.

Bu yutuqlar tasodif emas. Ular negizida chuqur o‘ylangan siyosat, xalqimizning fidokorona mehnati turibdi. Izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlik rivojlandi, yangi korxonalar qad rostladi. Mahalla guzari, do‘kon, kutubxona, bolalar maydonchalari barpo etildi. Odamlar hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun barcha sharoit muhayyo qilindi.

Viloyatda to‘qimachilik sanoati jadal rivojlanib borishi natijasida hududda yetishtirilgan paxtani zamonaviy klaster tizimida chuqur qayta ishlash kengayib bormoqda. Fikrimizni viloyatning mamlakat to‘qimachilik sanoatidagi ulushi 16,5 foizni tashkil etayotgani ham tasdiqlaydi.

Masalan, 2024-yilda Andijonda 20 trillion so‘mlik to‘qimachilik mahsuloti ishlab chiqarilib, 488 million dollarlik eksport qilingani ham mazkur sohadagi sa‘y-harakatlarimiz amaliy natijasi, desak yangilishmaymiz. Bu viloyat umumiy eksportining 42 foizini tashkil etadi.

Tashrif davomida viloyatni kompleks rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazildi. Ko‘pchilik orasida o‘tirib, uchrashuvda bevosita ishtirok etar ekanman, odamlar yuz-ko‘zida quvonch, ertangi kunga ishonch, yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik ifodasini ko‘rdim. Sababi davlatimiz rahbarining har bir gapi aholi farovonligi, xalq manfaatini ta‘minlashga qaratilgan.

Aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar insonlarni rozi qilish, ularning baxtli yashashi, murad-maqсадiga yetishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlik, yetidan samarali foydalanishga o‘rgatish uchun, avvalo, kasbiy ko‘nikmani rivojlantirishga alohida urg‘u berilgani, hudud ixtisoslashuvi asosida maktablarda mehnat darslari va kasbiy to‘garaklar tashkil etilishi, ushbu to‘garaklarga sanoat, savdo va servis korxonalari, klasterlar mutaxassislari kelib dars o‘tishi tom ma‘noda biznes boshlash istagidagi ko‘plab yoshlarni faollikka chorlab, harakatga keltiradi. Zero, aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, yangi



ish o‘rinlari ochish orqali ishsizlar bandligini ta‘minlash kambag‘allikka barham berishning eng to‘g‘ri va oqilona yo‘lidir. Yangi ish o‘rinlari yaratilsa, minglab oilaga daromad, baraka kiradi.

Inson qadr topsa, unda yaratuvchanlik, izlanish, o‘z ustida ishlash va hayotdan rozilik kayfiyati baland bo‘ladi. Odam qachon o‘z uyi, tayinli ishi va doimiy daromad manbaiga ega bo‘lsa, oilasi bilan tinch-xotirjam yashasa, farzandlari zamonaviy maktablarda ta‘lim olsa, sifatli tibbiy xizmatdan foydalansa, baxtli yashaydi, hayotdan rozi bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yilda yangi shahar qurilishi boshlangan edi. Bu galgi tashrifda Prezidentimiz loyihaning ilk natijalarini ko‘rdi. Ushbu shahar Andijon tumanidagi adirlikda — qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 4000 gektar maydonda barpo etilmoqda.

Ko‘chat ekib bog‘ yaratish, atrof-muhitni toza-ozoda saqlash xalqimizga xos fazilat. Shu ma‘noda, 19 gektar maydonda “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etilib, 10 ming tupdan ortiq manzarali daraxt ko‘chati, buta va gullar ekilgani yangi shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi.

Har o‘nying oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish, odamlarni o‘ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadida hududlarda bo‘lib, saylovchilar bilan muloqot o‘tkazamiz. Ochig‘i, har gal borganimizda biror o‘zgarish yoki yangilanishning guvohi bo‘lamiz. Eng muhimi, odamlarning kayfiyati yuqori, mamlakatimizdagi islohotlardan mamnun.

Umuman olganda, bugun viloyatda o‘zgarishlar, yangilanishlar juda katta. Islohotlarni odamlar o‘z kundalik hayotida sezmoqda, his etmoqda. Ushbu tashrifda belgilab berilgan salmoqli vazifalar hududning qiyofasini tubdan o‘zgartirish va odamlar turmushini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidentining Andijon shahridagi amfiteatri xalq amaliy san‘ati markaziga aylanirish haqidagi taklifi ham alohida e‘tiborga loyiq. Bu xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniy yaqinlashuvning muhim platformasiga aylanishi mumkinligiga ishonaman. Pokistonlik rassomlar ushbu maydonda o‘tkaziladigan festivallari va ijodiy loyihalarda ishtirok etishdan mamnun bo‘ladi deb o‘ylayman.

O‘zbekiston o‘z nigohi faqat o‘tmishga emas, balki kelajakka ham yo‘naltirilganini yana bir bor isbotladi. Bobur xotirasining tug‘ilib o‘sgan Andijonda qayta tiklanganini tarixiy adolat, shu bilan birga, muloqotga da‘vat sifatida baholash mumkin. Biz Pokistonda ushbu tashabbusni chin dildan yuksak baholaymiz hamda u mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvlarni kengaytirishga turkii bo‘lishiga umid qilamiz.

“Dunyo” AA
Lahor shahri

Prezidentimizning Andijon viloyatiga tashrifi nafaqat viloyat yoki vodiy ahli, balki barcha yurtdoshlarimiz, xususan, ziyolilar uchun unutilmas voqealarga boy bo‘ldi. Shu bois, tashrif tafsilotlarini, unda ilgari surilgan yangi g‘oya va tashabbuslarni yurtdoshlarimiz quvonch, ertangi kunga ishonch ila kuzatib bordi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda dunyo tamadduniga beqiyos xizmatlari bilan ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz nomini abadiylashtirish, ularga munosib avlodni tarbiyalash borasida tizimli amaliy ishlar bajarilmoqda. Natijada ko‘plab ulug‘ siymolarning ma‘naviy merosidan bahramand bo‘lish imkoniyati yaratildi. Buyuk ajdodlarimiz xotirasiga ko‘rsatilayotgan hurmat-e‘tibor tufayli yangi barpo etilayotgan maskanlar ular nomi bilan atalmoqda.



SHU YURT FARZANDI EKANIMDAN FAXRLANAMAN

Andijon – o‘zbek adabiyotining taniqli vakillari, olimu mutafakkirlar, san‘atkorlar yurti. Ulug‘ shoir va hukmdor Zahiriddin Muhammad Boburning kindik qoni to‘kilgan diyori.

Bugungi Andijon kundan kunga chiroy ochildib, rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz har safar Andijonga tashrifi davomida viloyatimizga katta-katta yangiliklar va kutilmagan sovg‘alar olib keladi. Bu galgi tashrif bahor fasliga to‘g‘ri keldi. Bu andijonliklar qalbida shunday bir uyg‘unlik paydo qildiki, ifodalash uchun kishida mukammal ijod qalami bo‘lishi kerak, nazarimda.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ikki yil avval Yangi Andijon shahri qurilishi boshlangan edi. Mazkur kent Andijon tumanidagi adirlikda barpo etilmoqda. Hozir bu yerda bunyodkorlik ishlari jadal sur‘atda davom etib, ko‘p qavatli uylar, bog‘chalar, maktablar hamda poliklinika qurildi. “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etilib, manzarali daraxtlar, gullar ekildi. Amfiteatr, dam olish joylari, dekorativ yo‘laklar, kafe va bolalar o‘yingohlari yangi shaharni tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirdi.

Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi amfiteatrdi so‘zlagan nutqini katta hayajon bilan tingladim. Ayniqsa, Zahiriddin

Ana shunday buyuklarimizdan biri, shubhasiz, ulug‘ vatandoshimiz, shoh va shoir, qomusiy olim, yirik davlat arbobi, benazir ijodkor, serqirra iste‘dod sohibi Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Hazrat Bobur va boburiylar hayoti, faoliyati, ijodini chuqur o‘rganish yuzasidan qilingan amaliy sa‘y-harakatlar tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtga, kindik qoni to‘kilgan Andijonga ruhan va ma‘nan qaytdi.

Prezidentimiz Andijonga har gal tashrifi chog‘ida Boburshoh faoliyati va ijodiga yuksak baho beradi. Ana shu baho barobarida Bobur nomli xalqaro jamoat fondi faoliyati ham iliq so‘zlar bilan e‘tirof etilishi zimmanimizga yanada mas‘uliyat yuklaydi hamda kelgusida fond o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajarishda jamoamiz vakillariga katta kuch-quvvat va shijoat bag‘ishlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur — Andijon farzandi. 1992-yili Bobur nomli xalqaro jamoat fondiga aynan Andijonda asos solingan ham bejiz emas. Mana 30-yildan oshibdiki, Boburshoh

vakillari tinmay izlanmoqda. Natijada 50 dan ziyod kitob chop etildi, ilk marotaba shaxsa bag‘ishlangan Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi yaratildi. “Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar” nomli 5 jildidan iborat bibliografik maqolalar to‘plami dunyo yuzini ko‘rdi. Bobur tanlangan asarlari — “Bobur kulliyoti” 6 jildda mujassamlandi, “Bobur va jahon madaniyati”, “Andijon shaharsozlik madaniyati tarixi” muzeylari barpo etildi, “baburid.uz” domeni bilan faoliyat yurituvchi “Xalqaro boburshunoslik ilmiy elektron platformasi” tashkil etildi.

Bobur va boburiylar merosini o‘rganish, targ‘ib-tashviq qilish yo‘lida samarali mehnat qilayotgan 30 ga yaqin xalqaro bo‘lim ochildi. Fond tomonidan tashkil etilgan xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar natijasida O‘zbekiston hududidan tashqarida dafn etilgan buyuk ajdodlarimiz qabr-maqbaralari izlab topilib, obodonlashtirish borasida zarur choralar ko‘rildi va ko‘rilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi barcha sohada tub o‘zgarishlar, yangilanishlar amalga

oshirilmoqda. Ayniqsa, aholining real daromadini oshirish, yangi ish o‘rinlari ochish, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar kun sayin yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Jumladan, ko‘hna va hamisha navqiron Andijon shahridagi bunyodkorlik va boshqa jabhalardagi o‘zgarishlar qatorida Yangi Andijon shaharchasi barpo etilgani fikrimiz isbotidir.

Davlatimiz rahbarining Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri deb nom berish haqidagi taklifi shoir ixlosmandi va bobursevar inson sifatida meni behad quvontirdi. Viloyatimizning men kabi nuroniylari hamisha Andijondagi biror hududning Bobur podshoh nomi bilan atalishi tarafdori bo‘lganmiz. Azaliy orzumiz ro‘yobi bo‘lgan ushbu tarixiy voqea o‘zini Bobur avlodimdan deb faxrlanib yuradigan har bir andijonlikni yangidan yangi marralami kashf etishga ilhomlantiradi.

Zamonaviy arxitektura, ko‘p qavatli mahobatli binolar, Bobur podshoh muhtasham haykalini o‘zida mujassam qiladigan shahar haqidagi rejalarni eshitib yanada ruhlantiradi. Bobur shahri Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “milliy madaniyat va san‘atimiz, o‘zbekona mehmonda‘stlik, bag‘rikenglik va hamkorlikni aks ettiradigan”, xalqimizning sevimli go‘shalaridan biriga aylanishiga ishonaman. Chunki davlatimiz rahbari mutasaddilarga shaharni ma‘rifat va madaniyat markaziga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan qaror loyihasini ishlab chiqishni topshirdi.

Kelgusida Bobur bobomiz siymosini abadiylashtirish maqsadida ulug‘ ajdodimiz va avlodlari bunyod qilgan tarixiy obidalarining kichiklashtirilgan nusxalaridan iborat tematik park barpo etiladigan bo‘ladi. Har yili Bobur shahrida rassomlar festivalini o‘tkazish taklif etildi. Shu kabi juda ko‘plab egzu tashabbuslar sabab Prezidentimizning Andijonga navbatdagi tashrifi yurtimizning barcha ziyolilarini quvontirdi.

Buning uchun andijonliklar va boburshunos olimlar, barcha ziyolilar nomidan chuqur minnatdorligimni izhor etaman.

qildi. Sababi Bobur bobomiz nafaqat ulug‘ alloma, balki faxr-iftixor ramzi hamdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarim bortigidan doim faxrlanib kelganman, munosib avlod bo‘lishga intilganman. Shu o‘rinda Prezidentimizning “Shonli tariximizni yosh avlodimizga, bolalarimizga tushuntirsa, ilm-ma‘rifatni rivojlantirsa, ulug‘ bobolarimizga munosib bo‘lib yashasa, Yangi O‘zbekistonnii ham, Uchinchi Renessansni ham albatta quramiz”, degan so‘zlari ayni shu maqsadlarimizning ifodasi bo‘ladi.

Prezidentimiz Bobur shahrida haqiqiy boburiylar yetishib chiqishi uchun bobomiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan bog‘cha va maktab, universitet, muzey, kutubxona va IT parkdan iborat yirik ta‘lim klasteri barpo etilishini va ushbu shahar ilm-fan shahriga, turizm va madaniyat markaziga, zamonaviy “Smart city”, ya‘ni “aqlli” shaharga aylantirilishini ta‘kidladi. Eng quvonarlisi, bog‘ning baland nuqtasida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning yangi va muhtasham haykali o‘rnatilishini aytdi. Bu o‘zgarishlar, shubhasiz, biz — yoshlar uchun ulkan imkoniyat.

Hozirgidek yodimda, 2024-yili Marhamat tumanida davlatimiz rahbari bilan shubhatlashib, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlashga va ilm-fan rivojiga o‘z hissamni qo‘shishga va‘da bergan edim. Bugun shu da‘vadan ustidan chiqdim. Fursatdan foydalanib, Prezidentimizga bildirgan ishonchi, yoshlarning ilm yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlayotgani va ilm-fanga e‘tibori uchun barcha o‘zbek yoshlari nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Kamola ODILJONOVA,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Andijon viloyati filiali inspektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri deb nom berish taklif etilgani o‘zgacha quvonch bag‘ishladi. Shubhasiz, bu tashabbusni barcha andijonliklar xursandchilik bilan qabul



Islahotlar samarasi

YANGI O‘ZBEKISTON

BEKORCHISI YO‘Q MAHALLA

MEHNATI ORTIDAN MILLIARDLAB DAROMAD OLAYOTGAN OILALAR KO‘PAYMOQDA

Ko‘pincha eshitganlarimizga ishonib ketavermaymiz. Kimdir unday qilibdi, kimdir bunday qilibdi, deyilsa, “Gap-da, lof ham evi bilan”, deb qo‘yamiz. Aslida, keyingi yillarda yurtimizdagi o‘zgarishlar deyarli har kuni ro‘y berayotgani shunchaki gap bo‘lmay qoldi. Balki sa‘y-harakatlar samara berib, odamlarning yashash tarzi, hududlar obodligiga ta‘sirini ko‘rsatmoqda.



“

Aholiga tegishli tomorqaning deyarli 95 foizidan unumli foydalanilyapti. Bitta oila kamida 120 million so‘m ishlab topadi.

sizni boqadi. Buni vaqtda anglay olish lozim. Ish izlab turli yurtlarda sarson bo‘lish shart emas. O‘z uyiningizda tinch va xotirjam hayot kechirishning o‘zi baxt. Peshona teri bilan topgan daromadningizga nima yetsin!

Esaboyliklar odatiga ko‘ra, har bir kishi o‘z daromad manbaini yaratishi kerak. Jumladan, Qurbongul Norqobilova turmush o‘rtog‘i Umr Nuraliyev bilan birga doim dehqonchilik qilib, ro‘zg‘or tebratib keladi. Shuning ortidan to‘rt farzandni voyaga yetkazib, uy-joyli qildi. Mahallada ko‘pchilik sabzavotchilik bilan shug‘ullansa, bu oila urug‘ yetishtirish bilan band.

— Har yili ikki yuz kiloga yaqin sabzi urug‘ yetishtiramiz, — deydi Qurbongul opa. — Bir kilosini o‘rtacha 250-300 ming so‘mdan sotamiz. Shukrki, shuning ortidan

ro‘zg‘orimiz but. Birovdan kam bo‘lganimiz yo‘q. Farzandlarim ham doim biz bilan birga. Hech qachon mehnatdan qochmaymiz. Qancha ko‘p harakat qilsak, shuncha ko‘p hosil olamiz. Bu esa yaxshi daromad degani.

Hisoblab ko‘rilsa, ushbu xonadonning bir yillik daromadi o‘rtacha besh yuz million so‘mdan oshadi. Lekin bu pul gektarlab yerdan emas, aksincha, bor-yo‘g‘i to‘rt sotixli tomorqadan olinmoqda. Bu esa 20 sotixdan ortiq tomorqasi bor kishilar uchun o‘rnak bo‘lishga arziydi.

Tuman mas‘ullarining ma‘lumotiga ko‘ra, hududda kambag‘al oilalar ham sanoqli qolgan. Xatlov jarayonida aniqlanganlarni bugun “mahalla yetilgisi” tashabbusi bilan kambag‘allikdan chiqarish chorasi ko‘rilmogda. Jumladan, birinchi guruh nogironi Baxtiyor

Xudoyshukurov oilasi ham ro‘yxatga olindi. Hokim yordamchisi tashabbusi bilan unga imtiyozli kredit ajratilib, chorva xarid qilishiga sharoit yaratildi. Bundan tashqari, tomorqasidan unumli foydalanish uchun homiylik yordami ajratilgan. Baxtiyor akaning farzandi ishga joylashtirildi. Demak, tez orada yana bir oila farovonlik sari qadam tashlaydi.

Koson tumani hokimligi mas‘ullari fikricha, aynan Esaboy mahallasi raisi kabi fidoyilik bilan ishlovchilar ko‘paysa, manzillar yanada obod bo‘ladi. Darhaqiqat, mahalla raisi tinim bilmaydigan, el uchun doim kamarbasta kishilardan biri ekani birgina ishsizlik bartaraf etilganidan ham ma‘lum. Bundan tashqari, chekka qishloq bo‘lishiga qaramay, shu joyning o‘zida yetishtirilgan mahsulotlar Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikistonga eksport qilinmoqda.

— Hududimizda bir yilda jami 80 ming tonnadan ziyod sabzavot yetishtiriladi. Shundan 30 ming tonnasidan ortig‘i xorijga sotiladi, — deydi “Esaboy” MFY raisi Nurillo Odirov. — Shuningdek, Toshkent shahri va mamlakatimizning deyarli barcha viloyati bozorlariga sabzavotlarimiz kirib boradi. Albatta, bu natijaga erishishning o‘zi bo‘lgani yo‘q. Aholi har yili fermerlardan g‘alladan bo‘shagan 20 ming gektar yerni ijaraga olib, dehqonchilik qiladi. Buning ortidan bir yilda bir milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ishlab topayotganlar soni ancha oshdi. Ilgari sabzavotlarni saqlash ancha mushkul edi. Ayniqsa, qishki sovuqda hamda issiq kunlarda imkoniyat bo‘lmagani bois, yaroqsiz holga kelib qolardi. Yoki saqlash uchun uzoqroq hududga xarajat qilib olib borishga to‘g‘ri kelardi. Bugun esa mahallamizning o‘zida muzlatkichli omborxonalar barpo etilgan. Endi dehqonlar mahsulotini bemalol shu yerda saqlab, o‘zi istagan paytda bozorga chiqarishi mumkin. Ayni paytda mahallamizning o‘zida 7 ta muzlatkichli ombor mavjud. Joriy yilda ular soni

50 taga yetkaziladi. Bundan tashqari, kelgusida nafaqat tumanimizda, balki qo‘shni Kasbi, Mirishkor, Qarshi tumanlaridan ham qo‘shimcha yer olib, dehqonchilik qilish maqsadimiz bor. Avvallari sug‘orish tizimida bir oz muammo mavjud edi. Shu yil boshida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida 3 milliard so‘m ajratildi. Buning hisobiga hozir yettita artezian qudug‘i ko‘vlandi, ariqlarimiz betonlashtirildi. Sug‘orishdagi muammolar to‘liq bartaraf etildi.

Mahallaning asosiy drayveri — sabzavotchilik. Aholiga tegishli tomorqaning deyarli 95 foizidan unumli foydalanilyapti. Bitta oila kamida 120 million so‘m ishlab topadi.

— O‘tgan yili ayrim yoshlar Rossiyaga ishlagani ketgandi, — deydi mahalla raisi. — Shundan so‘ng ularning oilaviy ahvolidan xabardor bo‘lib turdim. Avvaliga biroz vaqt kerak deb yurdim. Ammo bir-ikki oydan so‘ng yoshlarning biror tayinli ish topolmaganini aniqladim. Oilasidagilar ham, o‘zim ham xavotirlana boshladik. Ularning behuda vaqt sarflab yurganiga achindim. Shu yerda qancha ish bor. O‘zim ularning oldiga — Rossiyaga bordim. Borsam, yosh yigitar topilsa ishlab, topilmasa bekor yurgan ekan. Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q deb bejiz aytilmagan. Na yotoq joyida, na ovqatlanishida tartib bor. Hatto qaytish uchun yo‘lkoriga puli yo‘q. Yettovini qaytarib olib keldim. Hozir binoyidek ishlab yuribdi. Oilasi bag‘rida, oyiga kamida yetti-sakkiz million so‘m daromad olaypti.

Bugun ko‘pchilik kambag‘allikdan farovonlik sari dadil odimlayotgan esaboyliklarga havas qiladi. Bekorchisi yo‘q mahallaning har bir harakati ko‘pchilikka namuna. Asosiysi, berilayotgan imkoniyatlarni ishga solib, bozorlarimizni to‘kin-sochin, hududlarimizni farovon, xonadonlarni obod qilmoqda. Bunday mahallalar soni ko‘paysa, yurtimizda kambag‘allik darajasi keskin kamayishi aniq.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Agrotarmoq

Rishton tumanidagi “Mamajon” fermer xo‘jaligi sa‘y-harakati bilan zovur bo‘yidagi bo‘sh, qarovsiz qolgan maydonlarda bunyod etilgan yangi bog‘lar havasini keltiradi. Olma, gilos, behi, o‘rik qiyg‘os gulga kiribdi. Ming metrga cho‘zilgan tok ko‘chatlari hosil nishonalarini ko‘z-ko‘z qiladi. 2000 tupdan ortiq terak ko‘chati ko‘kka bo‘y cho‘zmoqda.



DALA CHETIDAN

XAZINA TOPAYOTGANLAR

Dala chetiga terak ko‘chatlari ekishda ufq toqiga ko‘tarilgan quyoshi yo‘nalishi hisobga olingan. Ya‘ni ko‘chatlar rivoji paxta va g‘alla ekinlariga soya solmasligiga e‘tibor qaratilgan, sug‘orish uchun ariqlar ochilgan. Mevazorlar qo‘ynida asalari oilalari parvarishlanaypti. Boshqa paykal chetida kartoshka, pomidor singari sabzavotlar yetishtirilmoqda.

— Yaqingacha bu yerlar tuproq uyumidan iborat qarovsiz tepaliklar bo‘lgan, — deydi fermer Nabijon Amirov. — Ekin maydoni atrofini o‘zlashtirish, undan maqsadli foydalanish borasidagi ishlar imkoniyatimizni kengaytirdi. Xo‘jaligimizda 39 gektar paxta, 45 gektar g‘alla maydoni bor. Shu kunga qadar dala chetidan samarasiz foydalanib kelganmiz. Yer qarovsiz, o‘z holiga tashlab qo‘yilgani bois, o‘t-o‘rlandan boshqa giyoh o‘smagan. Bugungi manzara, holat o‘zgardi: ekin maydonlariga dehqonchilik madaniyati kirib keldi. Shu kunga qadar o‘zlashtirilgan dala cheti, suv yo‘li bo‘yidagi bir gektarga yaqin maydonda ehtiyojimiz uchun kerakli sabzavot, poliz ekinlari ekib, parvarishlash imkoniga ega bo‘ldik. Chorva boqishini yo‘lga qo‘yganimiz, parranda va o‘rdak parvarishlash borasida ishlayapmiz.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talab va taklifi ortib borayotgani inobatga olinsa, ekin maydonlaridan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirish hajmi va sifatini oshirish muhim ishlar.

Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalanilgan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Endi dalalar cheti hamda kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlar, aholi tomorqasi, xonadonlar, ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni samarali tashkil qilish va ko‘paytirish maqsadida olcha, behi, bodom, jiyda, tut, olxo‘ri, uzum kabi mevali ko‘chatlar ekilyapti.

— Shu kunga qadar shahar va tumanlardagi dalalar cheti, kollektor-drenaj bo‘ylarida 7 million tupdan ortiq sarxil mevali daraxt ko‘chati ekildi, — deydi viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshlig‘i Abduhalim Saidov. — Ekilgan

ko‘chatlar fitosanitar nazorati davlat inspektorlari tomonidan dala nazorati bazasiga kiritib borilmoqda. Nihollarning rivojini doimiy monitoring qilib borish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish yuzasidan fermer xo‘jaliklariga maslahat berib borish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, dalalar chetiga ekin ekmaganlik holati aniqlanganda yer solig‘i stavkasi uch barobar oshirilishi, paxta va g‘alla ekinlarini yetishtirish uchun resurslar moliyalashtirishdan to‘xtatilishi, dala chetini fuqarolarga ikkilamchi ijaraga berish, bunda kambag‘al oilalarga ustunlik berilishi yuzasidan keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot ishlari bajarilyapti.

Egzu maqsad yo‘lida boshlangan tashabbus tufayli yangi bog‘-rog‘larga asos solindi, hududlar har jihatdan obod va fayzli maskanga aylanib bormoqda. — Faoliyatimiz meva yetishtirishga ixtisoslashgani bois, har qarich yer, har tup niholdan samarali foydalanishga harakat qilamiz, — deydi Farg‘ona shahridagi “Lochinbek bahori” bog‘dorchilik fermer xo‘jaligi rahbari Ortigali Xolmatov. — Sohaga ilm-fan, innovatsion loyihalar joriy etilayotganini e‘tiborga olib, dalalar chetida eksportbop mevali daraxtlar ekish, sarxil ko‘chatlar yetishtirishga alohida e‘tibor qaratyapmiz. Shu kunga qadar aholi ehtiyoji uchun 2000 tupdan ortiq mevali ko‘chat yetkazib berdik. Bu yo‘nalishda faoliyat boshlamog‘chi bo‘lgan tomorqachilar, bog‘bonlar bilan uzviy hamkorlik qilib kelyapmiz.

Tartib bilan ekilgan mevali daraxtlar e‘tiborni tortadi. Yerga yer qo‘shib mehnat qilayotgan bog‘bon ishi ko‘pga iborat. Bu yerlar yaqinda ham baland-pastliklardan iborat, qarovsiz bo‘lganiga ishingingiz kelmaydi. Qisqasi, dalalar cheti, kollektor-drenaj, yo‘l bo‘yi, ko‘p qavatli uylar oldidagi ekin maydonidan samarali foydalanish borasidagi sa‘y-harakatlar ko‘lami kundan kunga kengayib bormoqda. Imkon topgan borki, biror nihol ekish, har qarich yerni qadrlash harakati. Bu sa‘y-harakatlar hududlar obodligi, aholi farovonligi va bozorlarimiz to‘kinligiga xizmat qilayotir.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hududlar hayoti



BULUNG‘URDA QURUTNING 50 XILI TAYYORLANADI

O‘tmishda ajdodlarimiz uzoq safarga, xususan, haj ziyoratiga borganida o‘zi bilan tez aynimaydigan yegulik — tolqon va qurut olgan ekan. Ular har qanday qilmiga dosh beradigan, uzoq saqlash mumkin bo‘lgan mahsulotlar. Jumladan, tabiiy toza sutdan tayyorlangan qurutni 8 yilgacha istalgan haroratda saqlash mumkin. Tarkibi kalsiy, shuningdek, mikro, makro elementlar, fermentlarga boy qurut tibbiyotda ham tavsiya qilinadi.

Bemorlar jarrohlik amaliyotidan keyin tez kuch-quvvatga kirishi, mart-aprel oylari — “ilik uzildi” pallasida kalsiy yetishmasligining oldini olishda bu mahsulotning me‘yordagi iste‘moli juda foydali. Shu bois, odamlarning qurutga ehtiyoji hech qachon yo‘qolmaydi. Uni istalgan do‘kon, bozordan topa olamiz. Ayniqsa, poytaxtning Chorsu bozoriga kirgan kishi suzmayu qurutning yuqimli isini darhol sezadi. Rastalar, xaltalar to‘la turli shakldagi qurutlarni kimlar yetkazib berar ekan, degan o‘y o‘tadi xayoldan.

Chorsu bozoridagi ko‘plab qurut sotuvchilar bulung‘urlik qurut tayyorlovchilarning doimiy mijosi. Tumaning Navbahor mahallasidagi 70 ga yaqin xonadonda tayyorlanayotgan qurutlar butun mamlakatimiz bo‘ylab tarqaladi.

— Mahallamizning drayveri — qurutchilik. 794 xonadonning 65 tasi suzmadan qurut tayyorlash bilan shug‘ullanadi. 15 yildan beri shu hunar ortidan ro‘zg‘or tebratayotgan Behzod Ma‘mirov kabilarga bu ish — ota meros, — deydi Navbahor mahallasidagi hokim yordamchisi Jo‘rabek Qambarov. — Behzod Ma‘mirov ilgari xonadonida kuniga 400-500 kilo qurut tayyorlash uchun 8 kishini jalb qilgan. Chunki barcha ish qo‘l mehnatiga asoslangandi. Ishni yengillashtirish istagi tadbirkorni qurut tayyorlaydigan uskuna yaratishga undadi. 10 yillik izlanishi va sa‘y-harakati natija berib, orzusidagi uskuna ixtiro qilingach, hamma qiyinchiliklari ortda qoldi. Mahsulotning hajmi ortishi bilan birga sifati ham yaxшилandi. Endi maxsus uskunada katta hajmdagi ishini ikki ayol eplayapti. Bir kunda o‘rtacha ikki tonnagacha mahsulot tayyorlanayotir. Bu xonadondan chiqib ketayotgan qurutlar vohayu vodiyan tashqari Qirg‘izistonning O‘sh shahrigacha kirib boradi.

To‘lqin Rustamov ham 15-20 yildan buyon qurut tayyorlab kelayotir. Uskunasi bo‘lmagani bois, hozircha kuniga 400-500 kilo qurut chiqarib turibdi. Haftasiga 2-3 tonna suzma sotib oladi. Mahalladagi 5 kishining bandligini ta‘minlab, kunlik ish haqi beryapti.

Davlatimiz rahbari “Ikki kishini ish bilan ta‘minlagan odamni yelkanda ko‘taraman”, degan gapni yaqinda kichik va o‘rta biznes vakillari bilan mulohotda yana bir karra aytib o‘tdi. O‘zgarishlarga tez moslashadigan, yangilik va raqobatdan qo‘rqmaydigan, muhimi, odamlarni ishli qilib, daromadini ko‘paytirishda eng faol soha ham kichik biznes ekanini alohida ta‘kidladi. Ayni uchrashuvda ayol tadbirkorlarga yana imtiyozlar berilganidan kuch olgan Marhabo Norchayeva ham 4 qo‘shnisini ishli qilgan. O‘g‘li Ilyos Bozorboyev asosiy ish yurituvchi. Qurutchilik faoliyatining o‘zi unda boshqa ishga muhtojlik sezdirmaydi. 50 ga yaqin qurut turini poytaxtning Chorsu bozoriga yetkazib berayotgan yosh tadbirkordan mahsulotning ko‘tara narxini so‘radiki.

— Uch-uch yarim kilo suzmadan bir kilo qurut olinadi. Suzmaning kilosini 18 ming so‘mdan olamiz. Tayyor mahsulotlari 65-70 ming so‘mdan boshlab sotilyapti. El qatori foyda to‘rpaymiz, — deydi tadbirkor. Subhatimizga qo‘shilgan Marhabo opa “Biz boshlagan paytlar qurutchilar kam edi. Keyinchalik ko‘payib ketdi”, deydi.

Mahallaning xotin-qizlar faoli Risolat Sulaymonova esa o‘g‘li chet elga ketgani bois, qurut tayyorlamay qo‘ygani, biroq bu ishini to‘xtatmaslikdan gap boshladi. Axir qurutchilik ro‘zg‘orining koriga yarab, oila budjetiga ham yaxshigina hissa qo‘shadi-cha.

— Hozir tadbirkorlik uchun barcha sharoit bor. Hamma soha rivojlanib ketyapti. Masalan, suzmali Sirdaryo, Jizzax, Buxoro, Qashqadaryodan to‘g‘ri uyya olib keladiganlar bor. Qolaversa, o‘zimizdagi uchta bozordan ham xomashyo olib kelavermiz. Suzmani tut bilan aralashtirib beradigan mikserlar, suvini chiqarib, qurut yasashga hozirlaydigan bostirmalar yordamida ishlaymiz. Mahallada 2 kishida qurut tayyorlaydigan uskuna bor. Abdusattor Hakimov chet eldan olib kelgan, narxi juda qimmat. Qani endi hamyonboprog‘ bo‘lsa, hamma shunday uskuna bilan ishlaya, — deydi opa.

Qurut — hech qachon me‘daga tegmaydigan, bozori chaqqon mahsulot. Uning tarkibini chuqur o‘rganigan mutaxassislar yuqori kaloriyalii qiymatga

egaligini aniqlagan. Ularning ta‘kidlashicha, sigir sutida 10 foizga yaqin oqsil, o‘rnini boshqa narsa bilan alishtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar bor. Echlki sutidan tayyorlangan qurutlar esa hammaga birdek foydali. Ayniqsa, ravit kasalligiga chalingan bolalarga ko‘proq tavsiya qilinadi. Ichaklarni toksinlardan tozalab, qand moddasi va xolesterinni kamaytiradigan bunday mahsulotni tayyorlovchilar qurut biznesining eritasidan ko‘ngilni to‘q qilsa bo‘laveradi. Tabiiy usulda qayta ishlab tayyorlanayotgan qurut, albatta, ekologik toza, organik mahsulotdir.

Umuman olganda, qurutchilik — halol pul topish manbayi. To‘g‘ri, uning tarkibiga un, guruch tolgonini qo‘shadigan “uddaburon”lar bor. Biroq bulung‘urliklar nafsning ko‘yida doimiy mijozlarni yo‘qotishni istamaydi. Shuning uchun Qamchiq dovonidagi qurut sotuvchilarning ham ularga mehri baland.

Darvoqe, mahalla ahli qurutchilikdan boshqa faoliyat bilan ham shug‘ullanadi. Hokim yordamchisi ayni paytda mahallada imtiyozli kredit asosida tadbirkorlikning yangi-yangi turlari yo‘lga qo‘yilayotganini aytdi. Masalan, hunarmandchilikka keng imkoniyat yaratilyapti. Buning natijasida birgina hunarmand Gulsara Qudratova 200 dan ziyod shogird tayyorladi. U sovun, tasma, turli mato va qog‘ozlardan nafis gullar tayyorlaydi. Nafaqa yoshida bo‘lsa-da, bekor o‘tirishni istamaydigan bor ayol gul yasab sotish ortidan sog‘lig‘iga foyda, ro‘zg‘origa qo‘shimcha daromad keltiraypti. Axir oyiga kamida 5-6 million so‘m topsa yomonmi? Bayramlar arafasida esa daromad ikki hissa ortadi. Sovundan gul tayyorlash uchun qoliqlarni o‘zi yasaydi. Hunarini farzandi va nabiralriga o‘rgatadi. Shogirdlari orasida o‘zi mustaqil gul yasab, do‘kon ochganlari ham bor. Eng muhimi, ularning 20 nafari “Ayollar haftasi”ga kiritilgan xotin-qizlar. O‘tgan yilgi xatlovda mahalladan “Ayollar haftasi” ro‘yxatga olingan 105 xotin-qizning 40 nafari ishsiz sifatida qayd etilgandi. Hozir ularning 10 nafari Gulsara Qudratova sabab ish bilan ta‘minlandi. Xullas, endi hududda ishsiz odamning yoki yo‘q. Hamma foydali mehnat bilan band. Yaqinlarning yilda mahallada bironta jinoyatchilik kuzatilmagani ham shundan. Chunki barcha illatning boshi — bekorchilik.

Munojat MO‘MIANOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

SUN'IIY INTELLEKT, INNOVATSIYA,
RAQAMLI TEKNOLOGIYAIQTISODIYOTDA “KATTA SAKRASH”
DAVRINING ASOSIY FORMULASI

Fazliddin MO‘MINOV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi bo‘lim boshlig‘i

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy landshaftida “katta sakrash” davri boshlandi. Bu davrning asosiy formulasi sifatida maydonga chiqqan sun’iy intellekt, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar sohasi esa mamlakat iqtisodiyotini tubdan o‘zgartirish, uni jahon bozorida raqobatbardosh qilish hamda aholi farovonligini oshirish yo‘lida jadal rivojlanmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 19-mart kuni kichik va o‘rta biznes vakillari bilan o‘tkazgan uchrashuvida ham yuqoridagi masala ayni kun tartibida bo‘ldi. Davlatimiz rahbari tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash strategiy yo‘limiz ekanini ta’kidlar ekan, tadbirkorlik qancha tez rivojlansa, mamlakatimiz shuncha qudratli bo‘lishiga, xalqimiz shuncha farovon yashashiga urg‘u berdi. Kichik va o‘rta biznesda tez o‘sayotgan tadbirkorlarga ko‘mak berib, ularni ham sohada yetuk “champion”ga aylantirish chora-tadbirlari yo‘lini barchaga aniq va oydin qilib ko‘rsatib berdi.

Darhaqiqat, kichik va o‘rta biznes taraqqiyot yo‘lidagi har bir mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo‘g‘in bo‘la oladi. Bunda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandlik darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish masalalari soha beradigan yechimlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, sohaning iqtisodiy o‘sishga qo‘shadigan hisssasi salmoqli, u mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YIM)ning muhim qismini tashkil etadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes yangi g‘oyalari va texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi.

Demakki, tadbirkorlik milliy taraqqiyotimiz tayanchi ekan, yangi O‘zbekistonning ishonchli qadamlarini bugun aynan kichik tadbirkorlarimiz bosib o‘tmoqda. So‘nggi

yillarda bu borada erishilgan yutuqlarimizda ularning hisssasi katta bo‘ldi. Ular astoydil harakat natijasida dastlab o‘zlari “oyoqqa turgan” bo‘lsa, bugun 10 milliondan ziyod aholi shu yo‘nalishda daromad topib, ro‘zg‘or tebratmoqda. Xususan, soliq imtiyozlari belgilanishi, kredit resurslariga imtiyozli kirish, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va litsenziyalash tartib-taomillari soddalashtirilishi, biznes inkubatorlar va texnoparklar tashkil etilishi kabi ko‘plab o‘zgarishlar, xususiy mulk huquqini himoya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etish kabi islohotlar soha vakillariga muhim qanot bo‘ldi. Shu bois, yurtimizda aholining tadbirkorlikka qiziqishi yil sayin oshib bormoqda.

Aksariyat yoshlar orasida o‘z biznesini boshlash istagi kuchli ekanini kishini quvontiradi. Ular yangi g‘oyalari va innovatsion loyihalar bilan iqtisodiyotni rivojlantirishga hissasini qo‘shishga intilmoqda. Bu jarayonda esa oliy ta’lim tizimining o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlash joiz. Bunda o‘z yangi biznesini boshlayotgan yosh kadrlarga bilim va ko‘nikmalar berish, ularni moliyaviy boshqaruv, marketing, huquq va boshqa sohalarga oid zarur tushunchalar bilan tanishtirish muhim jarayondir.

Soha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, tarmoqlararo integratsiyani ta’minlash, talabalar, mutaxassislar va tadbirkorlar aloqalarini mustahkamlash yosh tadbirkorlarga sheriklar va investorlar topishda

ko‘maklashadi. Bu borada oliy ta’lim tizimida tashkil etilayotgan tadbirkorlik markazlari va inkubatorlar ularga zarur infratuzilma va resurslarni taqdim etmoqda. Shu maqsadlarni ko‘zlagan holda, yaqinda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O‘zbekistonda ilk bor “Kelajak muhandisi” respublika tanlovi e’lon qilindi.

Endi hukumatning tegishli qarori bilan 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab har yili muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha “Eng yaxshi g‘oya”, “Eng yaxshi loyiha” va “Eng yaxshi ixtiro” respublika ko‘rik-tanlovlari o‘tkaziladi. Tanlovga muhandislik sohasining asosiy yo‘nalishlari — mexanik muhandislik (mexanik tizimlar va uskunalar yaratish), elektr muhandisligi (elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash), kompyuter muhandisligi (kompyuter tizimlari va dasturiy ta’minotlar yaratish), qurilish muhandisligi (inshootlar, ko‘priklar va yo‘llar qurilishi) hamda kimyo muhandisligi (kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlari va moddalarni qayta ishlash) bo‘yicha loyihalar topshirish talab etiladi.

Tanlovning “Eng yaxshi g‘oya” yo‘nalishi muhandislik sohasida ilmiy-innovatsion xarakterga ega ijodiy g‘oyalarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, hali amaliyotga joriy etilmagan, lekin texnologiya yoki muhandislik jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi konseptual



Korrupsiya — jamiyat tanasidagi saraton

SHAFFOFLIK, TENGLIK, HALOLLIK

KORRUPSIYADAN XOLI MUHIT
YARATISHNING MUHIM OMILI

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish va korrupsiyadan xoli muhit yaratish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, 2025-yil 5-mart kuni Prezidentimiz raisligida o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.



Ahror HOSHIMXONOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Korrupsiya kamayishi va bartaraf etilishi iqtisodiy o‘rinish va jamiyatdagi ishonchni oshirishga yordam beradi. Dunyo tajribasini kuzatsak, rivojlangan davlatlar korrupsiyadan xoli muhit yaratib, bu illatni yenga olganiga guvoh bo‘lamiz. Singapur, Shvetsiya, Niderlandiya, Finlandiya kabi mamlakatlar korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishgan. Natijada davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi ishonch mustahkamlangan.

O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishda tizimli ishlar bajarildi. Endi bu sa‘y-harakatlar yangi kuch bilan izchil tus oladi. Sababi milliy kengash yig‘ilishida 55 ta aniq vazifa, jumladan, 5 ta yangi qonun, Prezidentning 12 ta farmoni va qarori loyihasini ishlab chiqish belgilandi.

Ilgari korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha alohida dasturlar mavjud bo‘lsa-da, ijrosi talab darajasida emas edi. Yangi davrda bunga chek qo‘yildi. Mamlakatimizda korrupsiyani tag-tomiri bilan quritish uchun, avvalo, inson omili va qog‘ozbozlikni kamaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Parlament va hududiy kengashlarning roli oshirildi, davlat organlarining ochiqligini ta’minlashga qaratilgan tizimlar joriy qilindi.

Prezidentimizning 2023-yil 27-noyabrda “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, davlat organlari faoliyatini yanada shaffoflashtirish va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha sa‘y-harakatlarning uzviy davomi bo‘ldi. Huquqiy hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va qonunlarni takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, tashqi va ichki auditni mustahkamlash borasida qator vazifalar belgilab berildi.

Farmon ijrosi doirasida davlat idoralari faoliyati ochiqligi ta’minlandi. Jamoatchilik nazorati kuchaytirildi hamda har chorakda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar tahlil qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat tashkilotlarining vazifalari aniq belgilandi. Yangi nazorat va monitoring mexanizmlari ishlab chiqilib,

korrupsiyaga qarshi samarali tizimlar joriy etildi.

Shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini yanada samarali amalga oshirish uchun ochiq ma’lumotlar bazalari va axborot tizimlari ishlab chiqildi. Ommaviy nazoratni kuchaytirish maqsadida fuqarolar va jamoat tashkilotlari davlat xizmatlarini monitoring qilishga jalb etildi.

Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini mustahkamlash uchun audit tizimi takomillashtirildi. Natijada davlat organlari



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



g‘oyalari asosida ishlab chiqilgan prototiplarni taqdim etish nazarda tutilgan. Ko‘rik-tanlovning maqsadi innovatsion fikrlarni keng ommaga yetkazish, yosh muhandislar orasida ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish va ilg‘or g‘oyalarni amaliy loyihalarga aylantirishdir.

Shu o‘rinda O‘zbekistonda startap ekotizimini rivojlantirish va innovatsion tumanlar bilan ishlash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar tahliliga e’tiboringizni qaratamiz. 2017-2024-yillar orasida O‘zbekistonda startap ekotizimini rivojlantirish va innovatsion tumanlar bilan ishlash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Startap ekotizimini rivojlantirish uchun 2018-yilda 30 ta startap loyiha moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2024-yilda kelib 114 taga yetdi. Bu startap loyihalarga qiziqish va investitsiyalar hajmi ortib borayotganini anglatadi.

Loyihalar natijasida yaratilgan innovatsion mahsulotlar va xizmatlar soni 2018-yildagi 42 tadan 2024-yilga kelib 364 taga yetdi. Bu startap loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini va innovatsion mahsulotlar bozorga kirib borayotganini ko‘rsatadi. Hududlarda 2022-yilda 25 ta innovatsion infratuzilma tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-yilda 55 taga yetdi. Bu hududlarda innovatsion

faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani isbotidir.

Umuman olganda, O‘zbekistonda startap ekotizimi va innovatsion faoliyatda ijodiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Davlatimiz tomonidan startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va hududlarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu yurtimizning innovatsion salohiyatini oshirishga va iqtisodiy o‘rinishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Uchrashuvda qayd etilganidek, iqtisodiyot hajmining yarmidan ko‘pi, sanoat va eksportning uchdan biri shu soha vakillari hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Bu raqamlarning o‘ziyoq mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun kichik va o‘rta biznes qanchalik muhimligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Davlatimiz rahbarining qat’iy siyosati hamda bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlagani bois, so‘nggi besh yilda kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karra ortdi.

Joriy yildan kichik biznesga 300 million so‘mgacha kredit berila boshlandi. Endi oxirgi bir yilda yiriklashib, kichik yoki o‘rta korxonaga aylangan tadbirkorlarga shuning 150 million so‘mi garovsiz beriladi.

Biznesni moliyalashtirishda muqobil manba sifatida venchur fondlar ommlashmoqda. Besh yilda ular ishtirokida 145 million

dollarlik 53 ta startap loyiha amalga oshirilgan. Buni kengaytirish maqsadida davlat banklari tomonidan yana 3 ta venchur kompaniya ochilib, 50 million dollarlik fond shakllantirildi. Xorijdan ham yana 50 million dollar jalb qilinadi. Bu biznesni boshlayotgan tadbirkorlar uchun qo‘shimcha imkoniyat bo‘ladi. Eng muhimi, bunday loyihalar iqtisodiyotga yangi yo‘nalish, texnologiya, innovatsiya va yuqori qo‘shilgan qiymat olib kiradi.

Prezidentimiz har qanday muvaffaqiyatli yirik biznes, eng avvalo, kichik g‘oya va harakatdan boshlanishini ta’kidlaydi. Bu fikr o‘ziga kelayotgan soha vakillariga katta motivatsiya berdi. Qolaversa, mamlakatimiz muvaffaqiyatlarida kichik biznesning ahamiyatini ham ifoda etdi. Ya’ni kichik biznes yirik biznesning poydevoridir. Kichik biznes rivojlansa, yirik biznes ham rivojlanadi, demakki, yurt taraqqiy qiladi, el yashnaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotida raqobat muhiti kuchayadi, bu esa xalqimiz uchun sifatl mahsulot va xizmatlarning keng assortimentini ta’minlaydi. Shuningdek, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali mamlakatning eksport salohiyati oshib boradi.

Yana bir muhim jihati, kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta’minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etishda asosiy tashabbuskoridir. Ya’ni tadbirkorlik yo‘nalishida tajriba ortib borgan sari biznes vakillari o‘z ustida ishlab, innovatsion faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Masalan, bu yo‘nalishda iqtisodiy o‘rinishning katalizatori bo‘lgan sun’iy intellekt iqtisodiyotning barcha sohalariga kirib kelmoqda. U ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanishi, xarajatlarni kamaytirishi va sifatlarni oshirishi bilan tadbirkorlarimizga katta qulayliklar yaratadi. Shu o‘rinda aytish kerakki, iqtisodiyotga bu kabi innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish sohada “katta sakrash” davrining muhim shartidir.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan muloqoti yurtimizda kichik va o‘rta biznes sohasining erkin rivojlanishi uchun yangi istiqbollarni belgilagan holda, ularning kelgusi faoliyatida tarixiy burilish yasashi aniq. Chunki endi tadbirkorlikka yangi qadam qo‘yganlar uchun “birinchi imkoniyat” tamoyili joriy etilmoqda. Bunda birinchi marotaba ma’muriy huquqbuzarlik qilgan tadbirkorga kamchilikni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, moliyaviy audidan o‘tish majburiyatining soddalashtirilishi, 2028-yilning 1-yanvariga qadar QQS va foyda solig‘i stavkasi oshirilmagligi, kichik biznesdagi kelgusi qadamlarni belgilab beradigan besh yillik strategiyani ishlab chiqilgan hamda yangi bozorlarga kirib borish, standart, yangiliklarga o‘qitish, brend yaratish, startaplarni yuzaga chiqarib, ko‘paytirish uchun kichik biznes uyushmasi tashkil etilishi, kichik biznes bilan ishlashga mahalladagi hokim yordamchisi, mahalla bankiridan tortib banklar, bandlik vaziri hamda Bosh vazir o‘rinbosarlarigacha juda katta tizim safarbar qilinayotgani — ularning barchasi tadbirkorlarimizni haqli ravishda yangi O‘zbekistonning biznes istiqbollarga aylantirishi shubhasiz.

Bu kabi muloqotlarning o‘tkazilishi, xalq yetakchisining tadbirkorlar bilan bevosita uchrashishi, ularning fikr va takliflarini diqqat bilan tinglashi, muammolarni hal etishga qaratilgan aniq topshiriqlar berishi, sohaga ko‘plab o‘zgarishlar, tashabbuslar, imtiyozlar joriy etilayotgani mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.



amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biridir.

Shu bois, davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda Ekspert komissiyasi tuzilishi, ilg‘or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxi ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratilishi, davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o‘rtacha bozor narxidan ko‘pi bilan 20 foizdan oshmasligi belgilab berilgani ayni muddao bo‘ldi.

Yig‘ilishda, shuningdek, ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jaramlar joriy qilinishi ta’kidlandi. Budget va byudjetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar ham kuchaytirilishi belgilandi. Davlat idoralarning xaridida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan transport va mebelga ustuvorlik berish zarurligi qayd etildi. Yirik loyihalarni yuqori darajadagi korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash talabi qo‘yildi.

O‘tgan yillarda tanlov va tenderlar raqamlashib, sog‘lom raqobat yo‘lga qo‘yilgani uchun byudjetning 14 trillion so‘m mablag‘i tejaladi. Endi davlat xaridlari tartibga solinishi, to‘g‘ri rivan to‘g‘ri xaridlar cheklanishi hisobiga byudjet mablag‘i tejalishi ta’minlanadi. Davlat pulini maqsadsiz sarflash holatlariga barham beriladi.

Biroq fikrimizcha, erishilgan natijalar bilan cheklanib, bu yo‘nalishda sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning umumimilliy vazifamizdir. Har bir inson bu illatga qarshi kurashni o‘z vazifasi deb bilishi kerak. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijodiy natijaga erishamiz. Barchamiz yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga o‘z hissamizni qo‘shgan holda islohotlarga daxldorligimizni yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Zero, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi islohotlar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar orqali davlat boshqaruvi ochiqligi, qonun ustuvorligi ta’minlanadi hamda iqtisodiy o‘rinish uchun mustahkam poydevor barpo etiladi. Korrupsiya kamayishi xalqning davlat idoralarga ishonchini mustahkamlaydi va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi.

Dastlab hayvonlar terisiga bitilgan matnlarni bugun metro yoki avtobusda audio shaklida eshitib ketamiz, planshetda o‘qiymiz, vizual gavdalandirib, so‘ng maroq bilan tomosha qilamiz. Xo‘sh, nima uchun? Nima sababdan yaxshi ma‘nodagi ushbu intellektual og‘u — kitob o‘qish odatining ijtimoiy ko‘lami ortsa, yurtida va jamiyatda taraqqiyot tezlashadi, degan qarashni qo‘llab-quvvatlaymiz, u muhim ehtiyojlarimizdan biri ekaniga shubha qilmaymiz?



Azizbek YUSUPOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mutolaa, tan olamizmi-yo‘qmi, shaxsiy muvaffaqiyatga ta’sir qiladigan bosh omillardan. Jahonda bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ular o‘qilgan kitoblarni soni erishilgan daromad darajasiga bevosita bog‘liqligini isbotlagan. Materialistik sabab kerakmi, mana: qancha ko‘p o‘qisangiz, shuncha ko‘p pul topish imkoniyatingiz oshib boradi.

o‘z maqsadini unutadi. Qarabsizki, birgina mutolaa inqirozi sabab zamonaviy manqurtlar asta-sekin butun boshli mamlakatni parokanda qiladi. Bir, uzog‘i ikki avlod almashinuvidan so‘ng odamlar o‘qish va yozishni butkul esdan chiqaradi. Shu vaqtga qadar o‘rtirilgan tajribalar, yaratilgan qulayliklar, tartiblar vosita yo‘qligi sabab makon va zamon oralig‘ida qolib ketadi...

bilan yonma-yon qo‘yilishi, shubhasiz, iqtisodiyotning adabiyot bilan, qo‘l bilan ushlab bo‘lmas hissiyotlar, kechinmalarni ifodalovchi lirikaning inkor etib bo‘lmaydigan faktlar bilan, afsonalarning matematik modellar bilan, to‘qima obrazlarning empirik qonunlar bilan qanday umumiyliги bo‘lishi mumkin, degan savolni o‘rta qiqaradi. Lekin baribir bu ikki



Kitob o‘qimaydigan kishi o‘zining emas, atrofdagilar fikri bilan yashaydi, ayrim insonlar ko‘rsatmasiga asosan hayoti qanday o‘tib ketib qolganini ham bilmay qoladi. Kitobsevar inson nafaqat o‘zini, balki atrofdagilarni ham tushunishga harakat qilib, shu bilan birga, o‘z shaxsiy fikri va pozitsiyasiga ega bo‘ladi, kimlardir xohlagani uchun noto‘g‘ri deb bilgan ishlarni bajarmaydi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Gap shundaki, mutolaa faqat shaxs va kitob so‘zlarining yig‘indisi emas, balki u hayotga nega kelganini, bu dunyodagi tugal maqsadi nimadan iborat ekanini, qanday yashasa, o‘zidan va boshqalardan minnatdor bo‘lishi mumkinligini o‘ylab o‘yiga yetolmagan, fikrlash doirasini muttasil kengaytirib borish asosida hamma savoliga javob topishni istagan sizni biz kabi odamlarni o‘zida qadim siru sinoatlarni yashirgan, har bir soha, har bir yo‘nalish, har bir tutum uchun e‘tiqod, donishmand, maslahatgo‘y, hamdard, yangi fan, ajoyib qo‘llanma, xullas, jami tajribalar majmui bo‘lib bera oladigan kitob bilan bog‘lovchi katta jarayondir.

Azaldan xalqimizda adabiy-badiiy did nihoyatda yuksak bo‘lgan. Turkiy, forsiy, arabiy tildagi asarlar birday mutolaa qilingan, sa’diixonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik, boburxonlik keng urf bo‘lgan. So‘z san’atiga shaydolik tufayli bo‘lsa kerak, odamlar hatto odatiy turmush tarzi, masalan, bozordagi oldi-sotdini ham qofiyaga solgan. Tabobat, odob-axloq, ilm-fanga oid yo‘l-yo‘riqlar, umuman, o‘rganish lozim bo‘lgan ko‘plab muhim sohaga doir asarlar she’riy yo‘lda bitilgan.

Mutolaa — xoslar mashg‘uloti, a’lo odamlar nasibasi ekanidan kelib chiqsak, ushbu hodisa insoniyat tarixidagi eng buyuk tafakkur sohiblarini o‘ziga jalb qilib kelgani bor gap. Ayniqsa, jamiyat didi yuksalishida beminnat xizmat qilgan adabiyot darg‘alari, jumladan, yozuvchilar, shoirlar, munaqqidlar go‘zal mutolaa taqdim etadigan rang-barang hissiyotlar qatorini to‘ldirib bergan. Albatta, tafakkur ko‘lami, saviyasi yozamanlarning kitobxonlik darajasidan yaqqol dalolat berib turishi yangilik emas. Turkiy tilda eng “ko‘p va xo‘b” yozgan Navoiyga noyob iste’doddan tashqari kitobxonlik bobida teng keladigan shoir mumtoz adabiyotimiz tarixida deyarli topilmasligining sababi ham shundan. Yozuvchi aytmoqchi, bir qator jo‘yali gap yozish uchun butun boshli kitobning avra-astarini chiqarish lozim.

Paradoksal tarafi: mutolaaga ta’sir ko‘rsatgan ushbu shaxslar aynan mutolaaning o‘zidan ta’sirlangan. Demak, kitobga aloqador har kim o‘zi bilgan, bilmagan holda mutolaaning cheksiz aylanuvchi halqasiga qo‘shiladi, uning kengayishiga xizmat qilishi bilan birga dunyoqarashini ham kengaytirib boradi.

KITOB O‘QIMASLIK HUQUQI

Endi hissiyotlarni bir chetga surib, diqqatimizni muammolar, bahsli savollar hamda faktlarga qaratamiz. Har qanday faoliyat zamirida, shuningdek, mutolaa jarayonida ham birinchi o‘rinda ehtiyoj yotadi. Bundan shu ayonki, oq-qora matn orqasida haqqoniy olam tushunchasi turibdi. Inson uni shu jarayonda o‘rganadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, mutolaa — faoliyatning bilish, o‘rganish, ilm olish hodisasi. Zamon zayli bilan esa ushbu ijtimoiy-badiiy hodisani qayta yetkazib beradigan vositalar o‘zgari b ketdi.

Madaniyatshunos va faylasuf Marshall Maklyuyen o‘tgan asming 60-yillarida insoniyat ixtiro qiladigan har bir yangi axborot vositasi butun bir avlod vakillarini katta imtihondan o‘tkazadi deganida, hozirgi avlodning elektron kitoblarni, buki derlar, smartfonlar qurshovida qolib ketishini nazarda tutgan bo‘lsa, ajabmas. Albatta, bularning hammasi muntazam ishlab

chiqiladigan va aslo to‘xtamaydigan, xavfli bo‘lmagan qulayliklarning navbatdagisi. Ulardan qay darajada foydalana olishimiz uzoq-yaqin kelajakda ma’lum bo‘ladi. Aslida, gap bular haqida emas, bugungi mutolaaning boshqa barcha davrga nisbatan sustligi, jo‘nligi va kitob o‘qish o‘zi nima uchun bunchalik muhimligi xususida.

UNESCO ma’lumotiga ko‘ra, bugun sayyoramizdagi 781 milliondan ortiq katta yoshli odam umuman o‘qishni bilmaydi. Bu har 10 kishidan biri savodsiz degani. 251 millionga yaqin bola maktabga bormaydi. Savodsizlarning aksariyati eng qashshoq 35 mamlakatda yashaydi, ammo rivojlangan mamlakatlarda ham oz emas.

Xo‘p, umuman, savodsiz odam bo‘lishga ongli ravishda rozilik bildirishga haqqimiz bormi? Afsuski, bugun yoshi 30 dan o‘tsada, uchta ham kitob o‘qimagan tanishlarimiz topiladi. Xo‘sh, ularda bu yorug‘ dunyodan mutlaqo o‘qimay yashab o‘tish huquqi bormi? Bor desak, unda nima uchun o‘zimizdagi mutolaa zavqini ularga yuqtirishga urinavermiz? Qo‘yanda-qo‘ymay ulardan o‘zimiz istagandek kitobxon yasashga chirinishimiz ortida rad etib bo‘lmas qanday mas’uliyat bor? Niyatimizga erishdik ham deylik, unday kitobxonalardan kimga qanday naf?

To‘g‘ri, kitobxonlikka muhabbat uyg‘otish alohida masala, biroq bu masala masofasini savodli kitobxonlik darajasini ko‘tarishga

Albatta, bular tasavvur. Ushbu holatga tushish uchun kamida hamma birdek fikrlamasligi lozim. Baxtimizga oramizda o‘z manfaatidan jamiyat manfaatini ustun ko‘radigan, yuksalish uchun tinimsiz mehnat qilayotganlar ko‘p. Menimcha, savodxon qatlamning ko‘payishi ijtimoiy hayotning barcha ko‘rinishida ta’sirchan omil ekanini adabiyot va iqtisodiyotning uyg‘unligida ko‘rib chiqsak, bugungi davr odami uchun yanayam tushunarli bo‘ladi.

ADABIYOTDA DAROMAD, PUL VA BOYLIK

Mutolaa, tan olamizmi-yo‘qmi, shaxsiy muvaffaqiyatga ta’sir qiladigan bosh omillardan. Jahonda bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ular o‘qilgan kitoblarni soni erishilgan daromad darajasiga bevosita bog‘liqligini isbotlagan. Materialistik sabab kerakmi, mana: qancha ko‘p o‘qisangiz, shuncha ko‘p pul topish imkoniyatingiz oshib boradi.

Masalan, Xitoyni olaylik. Bugun bu davlat kitobxonlik yo‘nalishini taraqqiyotining ustuvor ustunlaridan biriga aylantirgan. 10-15 yil oldin salkam dunyoning uchdan bir qismi yashaydigan ushbu hududda ijodkorlik deyarli yo‘q edi. Birgina fantastika, fentezi, kibepank kabi janr va uslublardagi asarlar ko‘payib, mutolaaga alohida e’tibor qaratila boshlagach, vaziyat tubdan o‘zgardi. Bir paytlar tanikli brenddagi mahsulotlarning arzon nusxasini yasashdan

tarafning bir-biridan farqi biz o‘ylagan darajada katta emas.

Odamlar muayyan haqiqatni tan olishi uchun, avvalo, uni his qilishi lozim. Badiiy matnlar yetkazadigan ma’lumotlar orqali biz boshqa odamlarning uzoq qit’alarda, bizga notanish



joylarda qanday yashayotgani haqida tasavvurni shakllantiramiz, ularning og‘rig‘ini o‘zimizda tuyamiz, quvonchini birgalashib baham ko‘ramiz, o‘tmish va kelajak ko‘prigida yuzmayuz kelib, savollar beramiz. Bularning hammasi esa ilmiy farazlar kabi yuz foiz rost bo‘lmagan tushunchalar, xulosalardir. Ehtimollar nazariyasi yoki bolalar uchun aytiladigan uydirma — ikkisi ham umumhaqiqatda so‘zsiz ustuvorlikka da’vo qilishga haqli emas. Bundan kelib chiqadiki, ikki soha qay bir nuqtada tenglikda turadi. Bu tenglik so‘nggi ikki asrda, ayniqsa, ko‘proq namoyon bo‘ldi.

Adabiyotda iqtisodiyot deb badiiy asarlarda iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy xatti-harakatlarning badiiy tasvirini kichik misol qilib keltirishimiz mumkin. Ya’ni to‘qima qahramonlar tilidan aytiluvchi jozibali so‘zlar muallifning o‘z davridagi iqtisodiy muammolarni qanday bartaraf etgani, qabul qilgani, muayyan iqtisodiy mezonning afzalliklari, noqulayliklari, bozorlardagi sof foyda va boshqa ko‘plab masalalarni ochuvchi kalit vazifasini o‘tagan.

yoki dramada pul asardagi kichik ijtimoiy muhitni belgiladi, qahramonlarning faoliyatini o‘zi bilan bog‘ladi. Boylik orttirish iljida nizolarni keltirib chiqardi — ko‘zbo‘yamachilik, muttahamliklar sodir bo‘layotgan makonni tasvirladi. Shunday qilib, asar syujeti bozor va ishlarni omlarning to‘qnashuviga asoslangan moliyaviy kontekstdan kelib chiqib, o‘z g‘oyasini targ‘ib qiluvchi qudratli vositaga aylandi. O‘z navbatida, bunday kitoblarni odamlarning moliyaviy, huquqiy savodxonligi oshishiga ham xizmat qildi. Aksiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, moliya bozoridagi fribarglik, spekulatsiya, nepotizm, raqobat, tadbirkorlik, innovatsiyalar, qarz va bankrotlik — bularning barchasi asar pishiqilgini ta’minlash bilan birga o‘quvchining ilmiy savijisini oshirdi, iqtisodiyotdagi dastlabki tushunchalarni shakllantirdi. Natijada bu sohaga qiziquvchilar safi karrasiga kengaydi.

XIX asrda bitilgan qator mashhur romanlardagi iqtisodiy voqealar poetik manzaraning dominantasi bo‘lgan. Gogolning “O‘lik jonlar”ida rus pomeschiklari, korruptsiонер va badnafs amaldorlar tasvirlangan bo‘lsa, Dostoyevskiy qahramonlari atrofida o‘sha davrning bozor sharoitiga batafsil to‘xtalib o‘tgan. Balzakning “Nusingen bank uyi” asari esa chayqovchilik haqida hikoya qiladi. Bunday misollar yuzlab topiladi. Asosiy iqtisodiy muammolardan biri — mavjud tabiiy resurslar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va cheklangan resurslardan optimal foydalanish orqali omon qolish muammosini hal qilgan Robinson Kruzo, balki ko‘pchilik bilmas,

iqtisodchilar orasida o‘ziga xos timsolga aylanib ulgurgan.

Dunyoning ko‘plab dongdor universitetlarida ta’lim beruvchi iqtisodchi professorlar adabiy qahramonlar talabalarga iqtisodiy nazariyalarni tushuntirishga yordam berishini ta’kidlagan. Kitobxon iqtisodchi bo‘lish ajoyib, ammo yaxshi kitobxon bo‘lsangiz, nafaqat iqtisodchi, balki istalgan sohaning yetuk mutaxassisi bo‘la olasiz.

INSONNING QIYMATI O‘QIGAN KITOBLARI BILAN O‘LCHANADI

Mutolaaning iqtisodiyotga ta’siri u keltiradigan foydaning o‘ndan biri, xolos. Umuman olganda, mutolaa — koni foyda. Kitob o‘qiydigan odam qayerda, qachon, kimga qanday gapirish kerakligini yaxshi biladi va fikrini ifodalash uchun kamdan kam so‘z topolmay qoladi. Kitob o‘qiydiganlar bilan suhbatlashish maroq beradi.

Miyaning chap yarim sharida so‘z va ma’lumotlar bilan bog‘liq operatsiyalar amalga oshiriladi. O‘ng yarim shar esa vizualizatsiya va

Paradoksal tarafi: mutolaaga ta’sir ko‘rsatgan ushbu shaxslar aynan mutolaaning o‘zidan ta’sirlangan. Demak, kitobga aloqador har kim o‘zi bilgan, bilmagan holda mutolaaning cheksiz aylanuvchi halqasiga qo‘shiladi, uning kengayishiga xizmat qilishi bilan birga dunyoqarashini ham kengaytirib boradi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
36811 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy